

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHODMONOV XOLMATJON PULATJON O‘G‘LI**

**SINTAKTIK-STILISTIK FIGURALAR KONVERGENSIYASI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on philological  
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

<b>Shodmonov Xolmatjon Po'latjon o'g'li</b> Sintaktik-stilistik figuralar konvergensiyasi.....	3
<b>Шодмонов Холматжон Пулатжон углы</b> Конвергенция синтаксически-стилистических фигур .....	25
<b>Shodmonov Kholmatjon Pulatjon ugli</b> Convergence of syntactic-stylistic figures.....	51
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHODMONOV XOLMATJON PO‘LATJON O‘G‘LI**

**SINTAKTIK-STILISTIK FIGURALAR KONVERGENSIYASI**

**10.00.01– O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fil4965 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb sahifasi (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:**

**Abdupattoyev Muhammadtohir Tojimatovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinova**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Nurmonova Dilfuza Abduhamidovna**  
filologiya fanlari doktori, professor.

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" dehabr soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy, Tel.: (993873) 244-57-82; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (635 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "27" noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "27" noyabr dagi 62 raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.Z.Rozikova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

**K.V.Yulchiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent

**M.Y.Mamajonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo tilshunosligida keyingi yillarda tilni nafaqat aloqa-aralashuv vositasi sifatida o'rganish, balki inson ruhiyatiga ta'sir etish vositasi sifatida ham o'rganish ommalashib bormoqda. Lisoniy birliklarning kommunikatsiya jarayonidagi ishtiroki, shuningdek, ularning ma'lum bir vazifa uchun xoslanishi – funksionallashuvi masalalarini o'rganish kun tartibiga chiqmoqda. Nutq tarkibida qo'llanuvchi har bir birlikning inson ongiga ta'sir etish xususiyatlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. An'anaviy tilshunoslikda sintaktik-stilistik figuralar, sintaktik-stilistik vositalar, uslubiy vositalar atamaları ostida o'rganib kelingan ta'sir vositalarining inson ongiga ta'sir etuvchi xususiyatlarini yanada chuqurroq va kengroq o'rganish bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Sintaktik-stilistik figuralarning konvergentsiyasi (nutqda aralash holatda qo'llanishi)ni o'rganish, ularning funksional imkoniyatlarini ilmiy jihatdan chuqurroq tushunish va talqin qilish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida olib borilayotgan lingvopoetik tadqiqotlar, jumladan, poetik sintaktik stilistika doirasida amalga oshirilayotgan izlanishlar soha rivojida alohida amaliy ahamiyatga ega.

Jahon tilshunosligida sintaktik-stilistik figuralarga oid tadqiqotlar antropotsentrik va lingvopoetik metodlar asosida amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda badiiy nutqning ta'sirchanligi va obrazlilikini ta'minlovchi va emotsional-ekspressivligini oshiruvchi vosita va figuralarni tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik fanlarining kesishuvida, ya'ni lingvopoetik tadqiqotlar doirasida o'rganish an'anaga aylanib bormoqda. Buning natijasida badiiy nutqni lisoniy jihatdan to'laqonli baholash, uning ta'sir mexanizmlarini aniqlash imkoniyati vujudga kelmoqda. Endi tilshunos tadqiqotchilar diqqati lisoniy birliklarni tasviriy xarakterda o'rganish bilan cheklanmay, ularning funksional imkoniyatlarini tadqiq etishga qaratilmoqda. Shuning uchun ham sintaktik-stilistik figuralar sifatida talqin etilayotgan lisoniy birliklarni lingvokulturologik va lingvopoetik tadqiqotlar doirasida o'rganish orqali muammoning nazariy jihatlarini to'liq asoslash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi Yangi O'zbekiston sharoitida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida "...xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlar va milliy tarbiya an'alarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish<sup>1</sup>", "...xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tilini jahondagi boy va qadimiy tillardan biri<sup>2</sup>" sifatidagi nufuzini yanada mustahkamlash til ilmida til – shaxs – madaniyat, til – shaxs – jamiyat tizimida qimmatli ilmiy izlanishlarni talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida tilshunoslar zimmasiga o'zbek tili bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirish, jahon ilmiy-tadqiqot standartlari asosida

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son qarori. – Toshkent sh. 28.07.2017. Manba: <https://lex.uz/docs/-4071203> (murojaat sanasi: 17.07.2024).

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son farmoni. 21.10.2019. Manba: <https://lex.uz/docs/-4561730> (murojaat sanasi: 21.08.2024).

o‘zbek tilining keng ifoda imkoniyatlarini ko‘rsatib berish vazifasini yuklaydi. Tilimizning milliy grammatik qurilishi, hissiy-ta’siriy va ekspressivligi hamda ifoda imkoniyatlarining to‘g‘ri talqini milliy mafkura va g‘oyalarimizning ravnaqi uchun eng muhim omillardan biridir. Shuning uchun ham, sintaktik-stilistik tadqiqotlar doirasida hissiy-ta’siriy funksiyasi jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan sintaktik-stilistik figuralarni tadqiq etish, keng va atroflicha baholash bugungi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bunday sintaktik-stilistik figuralarning birgalikda qo‘llanishi – konvergensiya hodisasini yuzaga keltirishi o‘zbek milliy muloqot jarayonining muhim bir birligi, g‘oyaviy va hissiy ta’sir qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ulardagi keng ko‘lamlilik, dialektika qonuniyatlarini o‘zida to‘la aks ettira olish xususiyatlari mazkur sintaktik-stilistik figuralardagi konvergensiya hodisasini o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu faoliyat doirasidagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Sintaktik-stilistik figuralar masalalari jahon tilshunosligida uzoq yillar davomida V.V.Vinogradov, I.R.Galperin, B.A.Larin, G.V.Stepanov, V.M.Jirmunskiy, D.N.Shmelev, N.P.Nebrosina, Y.M.Lotman, G.Y.Solganik, Y.M.Trofimova, L.A.Xoreshko, N.S.Bolotnova, Y.V.Kazarin, E.I.Koroleva, A.A.Lebedev, V.N.Patrojeva,

V.V.Babayseva, I.I.Kovtunovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritib kelingan<sup>3</sup>. Sintaktik-stilistik figuralarda konvergensiya hodisasining yuzaga kelishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar sifatida esa V.Riffater, V.N.Malevannaya, N.S.Matorina Y.V.Ivanova, S.A.Kuzmenko, G.A.Kopnina<sup>4</sup>larning monografik tadqiqotlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham sintaktik-stilistik figuralar va ular bilan bog'liq hodisalar badiiy nutq masalalariga bag'ishlangan ishlarda I.Mirzaev, A.Mamajonov M.Yo'ldoshev, M.Yoqubbekova, S.Karimov, M.Abdupattoyevlarning doktorlik<sup>5</sup>, G.Muhammadjonova, M.Yo'ldoshev, E.Ibragimova, O.Mamaziyayev, D.Jamoliddinova, D.Shodiyeva, S.Umirova, O.Tursunovalarning nomzodlik dissertatsiyalarida turli aspektlarda o'rganilgan bo'lsa-da<sup>6</sup>, ularda konvergensiya hodisasining yuzaga kelishi monografik planda alohida tadqiqot obyektini sifatida maxsus o'rganilmagan.

---

<sup>3</sup>Виноградов В.В. Язык и стиль русских писателей. – М.: Наука, 1990; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1973; Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – М.: Наука, 1988; Жирмунский В.М. Рифма, ее история и теория // Теория стиха. – Л.: Наука, 1975; Шмелев Д.Н. Слово и образ. – М.: Наука, 1964; Небросина Н.П. Синтаксис стихотворной речи как предмет лингвопоэтического исследования: На материале англ. и амер. поэзии XVI-XX вв: Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. Пермь, 1997; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1998; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Л.: Просвещение, 1972; Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – М.: Наука, 2022; Трофимова Ю.М. Лингвистика поэтического синтаксиса. – Саранск, 2015; Хорешко Л.А. Лингвокультурологический анализ поэтического текста и его передача на английский язык. – Белгород, 2018; Болотнова Н.С. Изучение идиостиля в современной коммуникативной стилистике художественного средства. – М.: Наука, 2004; Казарин Ю.В. Поэтический текст как система – Издательство Уральского университета, 1999; Королева Е.И. Экспрессивные грамматические средства языка в аспекте функционально-семантического поля (на материале современной британской баллеристики): Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Екатеринбург, 2016; Лебедев А.А. Поэтический синтаксис П.А.Вяземского: Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Петрозаводск, 2016; Патронева В.Н. Типы и функции осложняющих конструкций в языке русской поэзии XVIII-XIX вв: Автореф. дисс. ... д-ра. филол.наук. – СПб., 2020; Бабайцева В.В. Читая стихи... (синтаксис и семантика) 2-изд. – М.: Флинта, 2016; Ковтунова И.И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1986.

<sup>4</sup>Riffaterre V. Criteria for Style Analysis // Word. – April 1959. №1; P. 15-18; Малеванная В.Н. Синтаксическая конвергенция в английской художественной прозе. – Киев: Просиздат, 1986; Маторина Н.С. Информационный потенциал стилистической конвергенции (на материале англо-американской художественной прозы). – М.: Наука, 1989; Иванова Е.В. Когнитивный аспект перевода стилистической конвергенции: Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. – Уфа, 2006; Кузьменко С.А. Лингвопрагматические свойства конвергенции стилистических средств: Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Ставрополь, 2006; Копнина Г.А. Конвергенция стилистических фигур в современном русском литературном языке: на материале художественных и газетнопублицистических текстов: Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Красноярск, 2021.

<sup>5</sup>Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра. филол.наук. – Ташкент, 1992; Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 1994; Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2008; Ёқуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005; Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 2021.

<sup>6</sup>Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градиация: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2004; Жамолиддинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларининг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Шадиёва Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Умирова С. Ўзбек шеърятининг лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърятининг мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019; Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Фарғона, 2019.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek tili sintaksisi muammolari va sintaktik stilistika" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** o'zbek tilshunosligida konvergensiya nazariyasini asoslash bilan birga, mazkur hodisaning sintaktik-stilistik figuralarda yuzaga kelish holatlarini baholash va funksional imkoniyatlarini yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tilshunoslikda lingvistik konvergensiya nazariyasi muammolari haqidagi mavjud tushuncha va hodisalarni tizimli o'rganish va o'zbek tilshunosligida konvergensiya hodisasining mohiyatini yoritish;

tilning ta'sir funksiyasining yuzaga kelishida muhim vazifa bajaruvchi sintaktik-stilistik figuralarning stilistik tizimdagi o'rni, ahamiyati va ularni o'rganishning dolzarbligini yoritish;

sintaktik-stilistik figuralarda konvergensiya hodisasining voqelanishi, konvergensiyaning badiiy nutqda qo'llash zarurati va bunda nutqda ta'siriylik darajasining o'sishi bilan bog'liq masalalarni sharhlash va tahlilga tortish;

o'zbek badiiy nutqida sintaktik-stilistik figuralarning konvergentiv holatlarda qo'llanishi va bunda poetik nutq tarkibidagi funksional-stilistik o'zgarishlarni izohlash;

sintaktik-stilistik figuralarda yuzaga keladigan konvergensiya hodisasining funksional imkoniyatlari – emotsional-ekspressivlik va ta'siriylikni kuchaytirishdagi o'rni, fikr ifodasiga ta'sirini yoritish bilan birga, o'zbek badiiy nutqidan olingan misollar yordamida sintaktik-stilistik konvergensiyaning asosiy belgi-xususiyatlarini ko'rsatib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o'zbek badiiy nutqi va unda qo'llanuvchi sintaktik-stilistik figuralar konvergensiyasi belgilangan.

**Tadqiqotning predmetini** sintaktik-stilistik figuralar konvergensiyasi va uning o'ziga xos stilistik, semantik va funksional tahlili tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Sintaktik-stilistik figuralar konvergensiyasining o'ziga xos stilistik, semantik va funksional xususiyatlarini aniqlashda sinxron-tasviriy, tavsifiy, komponent va kontekstual tahlil, oppozitiv, qiyoslash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lingvistik konvergensiya nazariyasi muammolari haqidagi mavjud tushuncha va hodisalarni tizimli o'rganish bilan birga, tilshunoslikda konvergensiya hodisasining mohiyati hamda uni o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan;

sintaktik-stilistik figuralarning stilistik tizimdagi o'ziga xos o'rni va ularni o'rganishning tilshunoslik fani, jumladan, sintaktik stilistika yo'nalishi uchun dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyati aniqlangan;

konvergensiya hodisasining sintaktik-stilistik figuralarda aniq va to'laqonli voqelanishi bilan bog'liq nutqiy masalalar lisoniy dalillar tahlillari asosida isbotlangan;

o'zbek poetik nutqida sintaktik-stilistik figuralarning konvergentiv holatlarda qo'llanishi va bunda nutq tarkibidagi sintaktik-stilistik hamda funksional o'zgarishlar, o'ziga xos lisoniy xususiyatlar misollar yordamida dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

badiiy nutqda konvergensiya hodisasining yuzaga kelishi va bu hodisani o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati isbotlangan;

konvergensiya hodisasining sintaktik-stilistik figuralarda voqelanishi bilan bog'liq masalalar lisoniy dalillar vositasida izohlangan va tahlil etilgan;

o'zbek nutqida sintaktik-stilistik figuralarning konvergentiv holatlarda qo'llanishi, konvergensiya hodisasining funksional imkoniyatlari – emotsional-ekspressiv, nutqni shakllantirish funksiyalari o'zbek poetik nutqidan olingan lisoniy dalillar asosida tahlilga tortilgan va izohlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** olib chiqilayotgan masalalarning aniqligi, g'oyalarning an'anaviy sintaktik stilistika qonuniyatlarga mosligi, muammoni tadqiq etishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga va amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili sintaktik stilistikasi va lingvopoetikasini yangi ma'lumotlar bilan boyitish, sintaktik-stilistik figuralarning stilistik va funksional xususiyatlari haqida keng qamrovli ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallari va xulosalaridan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida 70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) magistratura mutaxassisligida “Matn lingvistikasi”, “Sintaktik stilistika”, “Lingvopoetika” kabi tanlov fanlarini o'tishda hamda 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun “Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis)”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Uslubshunoslik” fanlarini o'qitishda, mazkur fanlardan darsliklar, sintaktik stilistika masalalariga bag'ishlangan monografiyalar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sintaktik-stilistik figuralar konvergensiya masalalariga bag'ishlangan dissertatsion ishda erishilgan ilmiy natijalar asosida:

lingvistik konvergensiya nazariyasi muammolari haqidagi mavjud tushuncha va hodisalarni tizimli o'rganish bilan birga, tilshunoslikda konvergensiya hodisasining mohiyati hamda uni o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilganligi bo'yicha berilgan ilmiy xulosa va tavsiyalaridan 2020-2021-yillarda O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida amalga oshirilgan “O'zbek milliy raqs san'atini targ'ib etishga bag'ishlangan veb-sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug'atlar) to'plamini yaratish” mavzusidagi IZ-2019081663 raqamli fundamental loyiha doirasida “O'zbek milliy raqs terminlarining qisqacha o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug'ati”ni yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 3-martdagi 1/04-187 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning asosiy qismi ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashgan;

sintaktik stilistik figuralarning stilistik tizimdagi o'rni va ularni o'rganishning tilshunoslik fani uchun ahamiyatiga oid ilmiy qarashlari va xulosalaridan “O'zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta'lim va taraqqiyot”, “Millat va ma'naviyat” radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (“O'zbekiston” teleradiokanalining 2025-yil 7-martdagi 26-36-956-

son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan va ilmiyligi ortgan;

konvergensiya hodisasining sintaktik-stilistik figuralarda aniq va to'laqonli voqelanishi bilan bog'liq nutqiy masalalar lisoniy tahlillar asosida isbotlanganligiga oid xulosa va tavsiyalardan 2021-2023-yillarda "Musiqqa va san'at o'quv muassasalari uchun "Bolalar raqslari" fanidan interaktiv o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish" mavzusidagi F3-2019081773-raqamli fundamental loyihani bajarishda, xususan, "O'zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o'zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha qisqacha izohli lug'ati"ni yaratishda foydalanildi. (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi O'zbekiston Davlat xoreografiya akademiyasining 2025-yil 4-martdagi 1/04-188 raqamli ma'lumotnomasi) Natijada loyihaning asosiy qismi ilmiy-nazariy jihatdan mukammallashgan ilmiyligi oshgan;

o'zbek poetik nutqida sintaktik-stilistik figuralarning konvergentiv holatlarda qo'llanishi va bunda badiiy nutq tarkibidagi sintaktik-stilistik hamda funktsional o'zgarishlar, o'ziga xos lisoniy xususiyatlari misollar yordamida dalillanganligiga oid ilmiy qarashlari va xulosalaridan "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" radioeshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston" teleradiokanalining 2025-yil 7-martdagi 26-36-956-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan va radiodasturlarda berilgan mazkur ilmiy natijalar radiotinglovchilarning she'riyatni tushunish va chuqur anglash bo'yicha bilimlarining shakllanishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida, jumladan, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Konvergensiya nazariyasi va sintaktik stilistika muammolari**" deb nomlanadi. Bobning "*Tilshunoslikda konvergensiya nazariyasining vujudga kelishi va muammolari*" nomli birinchi faslida konvergensiya nazariyasining vujudga kelishi va uning jahon

tilshunosligida o'rganilishi, konvergensiya va divergensiya jarayonlari, ularning turlari va ko'rinishlari, asosiy lisoniy belgi-xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Dastlab konvergensiya nazariyasi biologiyada vujudga keldi, keyinchalik ijtimoiy-siyosiy fanlar, iqtisodiyot sohasiga, keyinchalik esa gumanitar fanlarga ko'chirildi.

Biologiyada organizmlarning bir-biriga yaqin bo'lmagan turlari evolyutsiyasi jarayonida xususiyatlarning bir-biriga yaqinlashishi, ularning o'xshash sharoitlarda va teng yo'naltirilgan tabiiy tanlanishda mavjud bo'lishi natijasida o'xshash tuzilishga ega bo'lishi konvergensiya deb yuritila boshladi. Konvergensiya natijasida turli organizmlarda bir xil funksiyani bajaradigan organlar o'xshash tuzilishga ega bo'ladi. Masalan, suzuvchi jonzorlar, sudralib yuruvchilar ixtiozavrlar va sutemizuvchilar delfinlarda evolyutsiya jarayonida tana shakli va old oyoqlari baliqlarning tana shakli va qanotlari bilan yaqinlashtirilgan o'xshashlikka ega bo'lishi biologik konvergensiya misol bo'la oladi.

Akademik A.Hojiyev o'zining "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da konvergensiya atamasini fonetik hodisaga nisbatan qo'llab: "Konvergensiya (lot. *convergens* – yaqinlashmoq, birlashmoq). Birdan ortiq tovushning tarixiy taraqqiyot natijasida bir tovushga birlashishi"<sup>7</sup> tarzida talqin etadi. Ma'lum bo'ladiki, bu o'rinda konvergensiya fonetik sathda tovushlarning yaqinlashuvi, birikib ketishi hodisasiga nisbatan qo'llanilgan.

Rus tilshunos olimasi T.V.Jerbilo konvergensiya atamasi ostida "Konvergensiya" bu (lotincha *convergere* – yaqinlashmoq, to'planmoq). Til elementlarining birlashishi, o'zaro ishlatilishi, zidligi divergensiya deb ta'riflaydi va matnda bitta nuqtada bir nechta stilistik usul va vositalarlarni jamlash, ma'lum bir stilistik maqsadda bitta umumiy stilistik funksiyani bajarish uchun qo'llash<sup>8</sup>ni tushunish lozimligini ko'rsatib o'tadi.

O.S.Axmanova esa konvergensiya atamasi ostida ikki xil til hodisasini tushunish va farqlash lozimligini ta'kidlab, tildagi turli tovushlarning o'zaro yaqinlashishi, hatto birlashishiga olib keladigan o'zgarish hamda ikki yoki undan ortiq tillarda bir xil xususiyatlarning rivojlanishi, bu odatda ularning hududiy yaqinligi, madaniy bog'liqligi va boshqa omillar tufayli yuzaga kelishi<sup>9</sup>ni ta'kidlab o'tadi.

Konvergensiya (lotincha *convergo* - yaqinlashish, birlashish, mos kelish) tilshunoslikda ikki yoki undan ortiq tillarning yoki ma'lum bir tildagi hodisa, usul va birliklarning yaqinlashishi, birlashishi yoki mos kelishidir<sup>10</sup>.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mazkur atama va tilshunoslikda turli lisoniy hodisalarning bir-biriga yaqinlashishi, qorishib ketishi yoki birgalikda qo'llanishi ma'nolarida qo'llanila boshlandi.

Tilshunoslikda konvergensiya atamasi sintaktik-stilistik figuralarga nisbatan birinchi marta nemis tilshunosi M.Riffatterre tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Konvergensiya – bu, ma'lum bir stilistik maqsadda ikki va undan ortiq sintaktik-stilistik vositalarning birgalikda qo'llanishi

<sup>7</sup>Хожиев А.П. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2001. – Б.51.

<sup>8</sup>Жеребило Т. В. Словарь лингвистических терминов. – Назрань: Пилигрим, 2010. – С.161.

<sup>9</sup>Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С.194.

<sup>10</sup>Маторина Н.С. Информационный потенциал стилистической конвергенции (на материале англо-американской художественной прозы) – М: 1989, – 208 с;

natijasida yuzaga keluvchi nutq hodisasidir”<sup>11</sup>. Ko‘rinadiki mazkur atamani tilshunos-olim tilshunoslikning sintaktik-stilistika sohasida qayd etgan. Biz ham yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishimizda M.Riffatterre hamda R.S.Matorinalarning fikrlariga tayangan holda, konvergensiya atamasini sintaktik-stilistik figuralarning birgalikda qo‘llanish hodisasiga nisbatan tadbiq etishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Sintaktik-stilistika masalalari, xususan, sintaktik-stilistik figuralar masalalariga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarda har bir tadqiqotchi mazkur yo‘nalishda sintaktik-stilistik figuralar haqida, nutq turlarida badiiy-estetik ta’siriylikni ta’minlash bo‘yicha turli mulohazalarni bildirib o‘tgan bo‘lsalar-da, sintaktik-stilistik figuralarning doiraviy-aralash, ya’ni konvergension tartibda qo‘llanishi bo‘yicha yetarli ma’lumot berib o‘tmaganlar.

Tilshunoslikda sintaktik-stilistik figuralar masalalariga bag‘ishlangan ishlarda, jumladan, T.N.Silman<sup>12</sup>, M.Riffatterre<sup>13</sup>, I.P.Moskvin<sup>14</sup>, A.A.Strelsov<sup>15</sup>, A.Mamajonov<sup>16</sup>, M.Abdupattoyev<sup>17</sup>larning ishlarida sintaktik-stilistik figuralarga yondashuv turli aspektlarda amalga oshirilgan. Shunga qaramay, bu turdagi vositalar tadqiqini tilshunoslikda keyingi yillarda paydo bo‘lgan zamonaviy yondashuvlar va ilmiy-tadqiqot metodlari asosida ko‘rib chiqish va baholash zarurati tug‘ildi.

Birinchi bobning “*Sintaktik stilistika va sintaktik-stilistik figuralar talqini*” deb nomlangan ikkinchi faslida sintaktik stilistika sohasining asosiy muammolari, sintaktik-stilistik figuralarning nomlanishi va tasnifi bo‘yicha mavjud qarashlar haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan.

“Sintaktik stilistika, nomlanishidan ham anglashilib turganidek, til haqidagi fanning ikki yo‘nalishi – sintaksis va stilistikaning kesishuvdagi yangi soha hisoblanib, mazkur soha sintaktik birliklarning stilistik xususiyatlari: ulardagi uslubiy bo‘yoqdorlik, hissiy-ta’siriy belgilar, sintaktik qurilmalar tarkibida qo‘llanuvchi sintaktik-stilistik vositalar va to‘liq tugallangan nutq ko‘rinishi hisoblangan matnlarning nutq uslublariga va ekspressivlikka bo‘lgan munosabatini o‘rganadi<sup>18</sup>”, – deb yozadi sintaktik stilistikaning asoschilaridan biri hisoblangan akademik G.Y.Solganik. Darhaqiqat, sintaktik stilistika tilshunoslikning nisbatan yangi yo‘nalishi sifatida sintaktik birliklarning stilistik jihatlarini tadqiq etuvchi soha sifatida alohida ahamiyatga ega.

Tilshunoslikda bunday figuralarni turli nomlar ostida atash va ularning tasnifi bo‘yicha turlicha nazariy qarashlar mavjud. O‘zbek tilshunosligida ularning ayrim turlari alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da<sup>19</sup>, mazkur ishlarda ular “stilistik figuralar,

<sup>11</sup>Riffatterre V. Criteria for Style Analysis // Word. – April 1959. – №1. – P.15-18.

<sup>12</sup>Сильман Т.Н. Синтаксико-стилистические особенности повторов – Вопросы языкознания. 1967. № 2. – С.68.

<sup>13</sup>Riffatterre V. Criteria for Style Analysis // Word. – April, 1959. – №1. – P.15-18.

<sup>14</sup>Москвин В. П. Стилистика русского языка. Приёмы и средства выразительной и образной речи (общая классификация). Пособие для студентов. – Волгоград: Учитель, 2000. – С.198.

<sup>15</sup>Стрелцов А.А. Три подхода к категории вопросительности. Вестник ПНИПУ. Проблемы языкознания а педагогики № 3, 2017. – С.43-57.

<sup>16</sup>Mamajonov A., Addupattoyev M. O‘zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. Monografiya. – Farg‘ona: Classic, 2021. – Б.206.

<sup>17</sup>Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография. – Фарғона: Classic, 2021. – Б.208.

<sup>18</sup>Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. Изд. стереотип. – М., ООО “Науку Всем” 2022. – С.7.

<sup>19</sup>Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент, Фан 1990, – Б.17-42; Мамажонов М. Махмудов У. Услубий воситалар. Фарғона 1994, – Б.48. Mamajonov A., Addupattoyev M. O‘zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. (monografiya), Farg‘ona, “Classic”, 2021. – Б.105-112; Ибрагимова Э. Ўзбек тилида

“uslubiy vositalar”, “sintaktik-stilistik figuralar”, “uslubiy figuralar” kabi turli atamalar ostida o‘rganilgan<sup>20</sup>. Ya’ni o‘zbek tilshunosligida bu turdagi vositalarni aniq bir termin bilan nomlanishida bir to‘xtamga kelinmagan. Bu muammoga rus tilshunosi G.A.Kopnina ham to‘xtalib o‘tadi va jahon tilshunosligida sintaktik stilistika masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari va lingvistik lug‘atlarda bu turdagi vositalar “stilistik figura”, “nutq figurasi”, “sintaktik figura”, “ ritorik figura” nomlari bilan yuritilayotganligi, terminlarni qo‘llashda bir xillik yo‘qligi, mazkur terminlar, aksariyat hollarda, sinonim tarzida qo‘llanilayotganligini ta’kidlab o‘tadi<sup>21</sup>. Ko‘rinadiki, ularni nomlashda ham umumiy bir fikrga kelinmagan. O‘zbek tilining poetik sintaksisi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan M.Abdupattoyev bunday vositalarni sintaktik figuralar atamasi ostida tadqiq etishni taklif etadi<sup>22</sup>. Tadqiqotchi bu turdagi vositalarni sintaktik figuralar deb nomlash lozimligini quyidagicha asoslaydi: “Bizningcha, ularni sintaktik figuralar deb atash maqsadga muvofiq, chunki mazkur figuralarning barchasi sintaktik birlik sifatida shakllanadi va sintaktik butunliklar tarkibida o‘z stilistik imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi<sup>23</sup>.”

Rus tilshunoslari O.I.Litkina, L.V.Selezneva, Y.Y.Skoroxodovalar esa bu turdagi vositalarni sintaktik-stilistik figuralar atamasi ostida o‘rganish lozimligini ko‘rsatib o‘tgan holda, “badiiy va poetik nutqda faol qo‘llanuvchi shunday vositalar ham borki, ular troplar va ko‘chim turlaridan farqli o‘laroq, hissiy-ta’siriy bo‘yoqdorlikni juda kuchli ifoda eta oladi. Ularni sintaktik-stilistik figuralar sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Chunki sintaktik stilistikaning markaziy tadqiqot obyekti sifatida ular bir paytning o‘zida sintaktik vazifa bajarishi bilan birga, stilistik vazifa ham bajaradi – nutqqa jozibadorlik, obrazlilik va ekspressivlik bag‘ishlaydi<sup>24</sup>”. Biz ham yuqoridagi mualliflarning fikrlariga tayangan holda, o‘z tadqiqot ishimizda bu turdagi vositalarni sintaktik-stilistik figuralar atamasi ostida o‘rganishni lozim deb topdik.

Birinchi bobning “*Konvergensiya hodisasi va sintaktik-stilistik figuralar munosabati*” deb nomlangan uchinchi faslida konvergensiyaning sintaktik-stilistik figuralarda namoyon bo‘lishi, sintaktik-stilistik figuralarning badiiy va poetik nutqda konvergensiya uchrashida badiiy va poetik matnlar tarkibidagi stilistik o‘zgarishlar tahlil etiladi.

“Sintaktik-stilistik konvergensiya badiiy va poetik matnlarda muallifning yuksak mahoratidan darak beruvchi hodisa bo‘lib, tilshunoslardan tomonidan endigina e’tibor qaratilayotgan, shu bilan birga, juda kam o‘rganilgan stilistik usul sifatida namoyon bo‘ladi<sup>25</sup>”. Umuman, obrazlilik va emotsional-ekspressivlik yuqori bo‘lgan matnlar tarkibida yuzaga kelgan konvergensiya hodisasini o‘rganish

---

ирония ва ироник мазмун ифодалашнинг усул хамда воситалари. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 25 б; Мамазияев О. Ўзбек поэтик нуткида хиазм ва градация. Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Фарғона, 2004. – 26 б;

<sup>20</sup>Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография – Фарғона: Classic, 2021. – Б.208.

<sup>21</sup>Копнина Г.А. Конвергенция стилистических фигур в современном русском литературном языке (на материале художественных и газетно-публицистических текстов). Дисс... канд. филол. наук. Красноярск. 2001. – С 12.

<sup>22</sup>Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография – Фарғона: Classic, 2021. – Б.136.

<sup>23</sup>Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография – Фарғона: Classic, 2021. – Б.136.

<sup>24</sup>О.И. Лыткина, Л.В. Селезнева, Е.Ю. Скороходова. Практическая стилистика русского языка. Учебное пособие 5-е издание, исправленное и дополненное. – М.: Флинта, 2022. – С.197.

<sup>25</sup>Нелькенбаум В.М. Особенности стилистической конвергенции в художественном тексте. // Вестник Башкирского университета. 2016. Т. 21. – №1, – С.136.

maqsadida tadqiqotchilar matnning (boshqa matnlardan farqlanib turuvchi) o‘ziga xos lisoniy belgilariga tayanadilar, ya’ni gaplarning o‘ziga xos ritmda shakllanishi, qo‘llanilgan so‘z va birikmalarning leksik-semantik xususiyatlari, stilistik usul va vositalarning mahsuldorligiga e’tibor qaratadilar. Shuningdek, matnda qo‘llanilgan troplar va sintaktik-stilistik ifoda vositalari tahlili birinchi planga chiqadi. Bir so‘z bilan aytganda, “sintaktik-stilistik konvergensiya atamasi ostida troplar va stilistik figuralar konsentratsiyasi (birgalikda qo‘llanishi, birlashuvi – tahr. X.Shodmonov) tushuniladi”<sup>26</sup>.

Matn tarkibida bir nechta vosita va usullar birlashgan va birgalikda qo‘llangan holda quyidagi:

1) ifoda etilayotgan voqelik yoki tasvirlanayotgan obyektning muhim belgilarini birinchi planga chiqarish, shu belgini bo‘rttirish va shu yo‘l bilan o‘quvchini ta’sirlantirish;

2) matnning tarkibiy qismlarini bir stilistik maqsad atrofiga biriktirish va shu yo‘l bilan ular o‘rtasidagi semantik-sintaktik aloqadorlikni ta’minlash;

3) matnda badiiy-estetik muhit hosil qilgan holda, emotsional-ekspressivlikni yuqori darajada ta’minlash kabi stilistik funksiyalarni bajarish kabi holatlarni yuzaga keltiradi<sup>27</sup>.

Konvergensiya atamasi birinchi marta nemis tilshunosi M.Riffaterre tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, u bu tushunchaga quyidagicha ta’rif beradi: “Konvergensiya – bu, ma’lum bir stilistik maqsadda ikki va undan ortiq sintaktik-stilistik vositalarning birgalikda qo‘llanishi natijasida yuzaga keluvchi nutq hodisasidir”<sup>28</sup>.

Rus tilshunosi V.P.Moskvin konvergensiya atamasi ostida turli darajadagi sintaktik-stilistik vositalarning yagona stilistik maqsadning yuzaga chiqishi uchun ishlatilishi natijasida yuzaga kelgan murakkab stilistik usulni tushunish lozimligini ta’kidlaydi<sup>29</sup>. Keltirilgan har ikki ta’rifdan ko‘rinadiki, sintaktik-stilistik vositalarning o‘zaro birgalikda qo‘llanishi natijasida ular o‘rtasida sintaktik-stilistik konvergensiya yuzaga keladi.

Dissertatsiyaning “**Nutq hajmini kengaytiruvchi va qisqartiruvchi figuralarda konvergensiya**” deb nomlangan ikkinchi bobi mazmuni 3 faslda bayon qilingan.

Bobning “*Takror va unga yondosh figuralar konvergensiyasi*” deb nomlangan birinchi faslida takror va uning turlari tavsiflangan holda, takror vositasida yuzaga keladigan sintaktik-stilistik konvergensiya tadqiq etilgan.

Rus tilshunosi V.M.Jirmunskiy takror va uning turlari haqida alohida to‘xtalib, takrorlarning poetik nutqda she’riy bandlar kompozitsiyasining shakllanishi va musiqiy ohangning uyg‘unlashuvida muhim o‘rin tutishi<sup>30</sup>ni ta’kidlab o‘tadi. Takrorlar poetik nutqning aniq belgilangan o‘rinlarda qo‘llanib, fikr mazmunini kuchaytirish va ta’kidlash bilan birga, bir paytning o‘zida

<sup>26</sup>Обнорская М.Е. Синтаксическая конвергенция // Стилистика романно – германских языков // материал семинара // СП. 2021. – С.76.

<sup>27</sup>Обнорская М.Е. Синтаксическая конвергенция // Стилистика романно – германских языков // материал семинара // СП. 2021. – Б.77.

<sup>28</sup>Riffaterre V. Criteria for Style Analysis // Word. – April 1959. №1. – P.15-18.

<sup>29</sup>Москвин В. П. Стилистика русского языка: Приёмы и средства выразительной и образной речи (общая классификация): Пособие для студентов. Волгоград: Учитель, 2000. – С.198.

<sup>30</sup>Жирмунский В.М.Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л., 1977. – С.19.

kompozitsion yaxlitlik hosil qilish va ekspressiya ifoda etishi jihatidan muhim vazifa bajaradi.

Ma'lumki, sintaktik-stilistik konvergensiya tilimizdagi mavjud barcha badiiy tasvir vositalari, troplar, sintaktik-stilistik usul va vositalar ishtirok etish imkoniyatiga ega. Takror va uning turlari bu borada yetakchi o'rin tutadi. Takror bilan konvergensiya kirishuvchi eng faol vositalardan biri – sintaktik parallelizmdir. Sintaktik parallelizm badiiy nutq tarkibida qo'llangan yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishi hisoblanadi. Sintaktik parallelizm poetik nutqning asosiy sintaktik figuralaridan biri bo'lib, ta'siriylikni oshirish, ichki ritmni kuchaytirish maqsadida qo'llanadi. (Sintaktik parallelizmnin stilistik xususiyatlariga ishimizning uchinchi bobida alohida to'xtalib o'tamiz). Mazkur figura takror bilan birgalikda qo'llanib, konvergensiya hodisasini yuzaga chiqarganda, tasviriylik va ta'siriylik yuqori pardaga ko'tariladi. Masalan:

*Ohista-ohista yog'adi yomg'ir,  
Ohista-ohista qo'zg'alar shamol.  
Ohista-ohista to'kilar yumshoq nur  
Bulutlar bag'ridan ko'ringan hilol.  
Ohista-ohista yig'laydi bir qiz,*

(Usmon Azim. Saylanma. 40-bet<sup>31</sup>).

Lisoniy dalil sifatida keltirilgan ushbu misolni tahlil qiladigan bo'lsak, unda takror va sintaktik parallelizm konvergensiyaning yorqin namunasini kuzatishimiz mumkin. Misolga diqqat qilinsa, takror va parallelizmnin she'riy nutqni tashkil etgan gaplarda konvergensiya – qorishiq holatda, quyidagi tartibda qo'llanilgan:

a) *Ohista-ohista* juft so'zning leksik takror sifatida to'rtta gap tarkibida kelganligi;

b) *Ohista-ohista yog'adi yomg'ir,  
Ohista-ohista qo'zg'alar shamol*

Gaplarida bir xil bo'laklarning parallel: hol – kesim – ega tarzida qo'llanilgani;

s) *Ohista-ohista to'kar yumshoq nur  
Ohista-ohista yig'laydi bir qiz*

Satrlarida esa sintaktik parallelizmnin yana bir ko'rinishi: hol – kesim-aniqllovchi – ega parallelligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

Dissertatsiyaning mazkur faslida, shuningdek, takrorning ellipsis va xiazm bilan sintaktik-stilistik konvergensiya kirishuvi tahlil etilgan.

Ikkinchi bobning keyingi fasli "*Polisindeton vositasida konvergensiya hodisasining yuzaga chiqishi.*" deb nomlanadi.

Polisindeton takroriylik asosida yuzaga keluvchi sintaktik figura bo'lgani uchun ham poetik nutqda nafaqat shakliy, balki mazmuniy simmetriya hosil qiladi. Mazkur simmetriklik poetik nutq qism-komponentlari o'rtasida semantik aniqlik va mazmuniy uyg'unlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Natijada, nutqning semantik yadrosi shakllanadi. Bunda, albatta, polisindeton o'ziga xos vazifa bajaradi. Polisindetonning poetik nutqning semantik yaxlitligini ta'minlovchi samarali usullardan biridir.

<sup>31</sup>Dissertatsiyada keltirilgan misollar manzilini belgilashda muallif, nashr nomi va kitob sahifasi ko'rsatildi.

Polisindetonning tadqiqotchi diqqatini tortuvchi yana bir konvergension xususiyati – uning bir nechta sintaktik-stilistik usul bilan birgalikda qo‘llanishidir. Quyidagi keltiriladigan lisoniy dalilda polisindeton takror, sintatik parallelizm, kontekstual stilistik sinonimiya, ellipsis va antiteza bilan birgalikda qo‘llanib, konvergensiya hosil qilgan.

*Bu yerda na g‘urbat, na ofat, na g‘am.*

*Bunda bor: harorat, muhabbat, shafqat.*

(G‘.G‘ulom. Mukammal asarlar to‘plami. Ikkinchi tom. 21-bet.)

Misolda polisindeton – ko‘pbog‘lovchilik takror – *na bog‘lovchisining takrorlanishi*, sintaktik parallelizm – bir xil sintaktik shakllar (uyushgan gaplar)ning takrorlanishi – *na g‘urbat (bor), na ofat (bor), na g‘am (bor)*, kontekstual stilistik sinonimlar – *g‘urbat, ofat, g‘am* leksemalarining qo‘llanilishi, uyushgan gaplar tarkibidagi, kesim vazifasidagi *bor* so‘zining tushirib qoldirilishi, ya‘ni ellipsisga uchrashi hamda antiteza – *g‘urbat, ofat, g‘am* leksemalari ma‘nolarining *harorat, muhabbat, shafqat* leksemalari ma‘nolariga zid qo‘yilishi voqelangan. Bu holat o‘zbek tilining badiiy ifoda vositalariga naqadar boy ekanligini, tilimizning stilistik ifoda imkoniyatlari cheksiz-chegarasiz ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*Nutq hajmini qisqartiruvchi figuralar konvergensiya*” deb nomlanadi.

Ma‘lumki, nutq hajmini qisqartiruvchi sintaktik-stilistik figuralar “shaklan “kengaytiruvchilar”ning aksi bo‘lib, ular ma‘lum bir bo‘lakning tushib qolishi, shaklan ifodalanmasligi bilan xarakterlanadi”<sup>32</sup>.

Bu turdagi vositalarning vazifasi ham boshqa turdagi figuralarning sitaktik-stilistik vazifasidan umuman farq qilmaydi. Ular badiiy va poetik matnlarning shakliy jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib, tilning tejamkorlik qonuniyati asosida nutq tarkibidagi ayrim gap bo‘laklari yoki boshqa vositalarning tushib qolishi, shaklan ifodalanmasligi bilan xarakterlanadi. Bunda badiiy yoki poetik nutqni tashkil etgan gaplar (ular sodda, qo‘shma yoki murakkab gap bo‘lishidan qat‘iy nazar) shaklan ixchamlashadi. Natijada, matn yoki nutq tarkibida qisqarish sodir bo‘ladi. Shuning uchun ham bu turdagi sintaktik-stilistik vositalar tilshunoslar tomonidan nutq hajmini qisqartiruvchi figuralar, deb nomlanadi va ularga, asosan, asindeton va ellipsis hodisalari kiritiladi<sup>33</sup>.

Asindeton sanash ohangiga ega bo‘lgan qismlar miqdori oz bo‘lganda ham ekspressiyani kuchaytirishi mumkin. Bunday holatda, albatta, sintaktik-stilistik figuralar konvergensiya yuzaga keladi, ya‘ni asindeton boshqa bir sintaktik figuralar bilan, masalan, takror va sintaktik parallelizm bilan qo‘llaniladi:

*Xotira qiyshiqdir,*

*O‘y-xayol — qiyshiq.*

*Yuraklar — qiyshaygan,*

*Qibla — qiyshaygan,*

*Hatto qiyshiq qilinib aytilar qo‘shiq,*

<sup>32</sup>Трофимова Ю.М. Лингвистика поэтического синтаксиса. – Саранск. 2015. – С.178.

<sup>33</sup>Небросина Н.П. Синтаксис стихотворной речи как предмет лингвопоэтического исследования: На материале англ. и амер. поэзии ХUI-XX вв: Автореф. дисс... канд. фил. наук. – Пермь. 1997. – С.42; Бойков А.И. Конструкции разговорного синтаксиса в поэтическом идиолекте А.Башлачева. // Ярославский педагогический вестник, 2013. – №3 – Том I (Гуманитарные науки) – С.162-166; Бабайцева В.В. Читая стихи... (синтаксис и семантика) 2-изд. – М.: Флинта, 2016, – С.176; Абдупаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси (монография), – Фарғона: Classic, 2021, – Б.150-157.

*Shior: «To‘g‘ri yurma!  
Chalkashtir! Aylan!»*

(Usmon Azim. “Uyg‘onish azobi”, 12-bet)

Keltirilgan poetik nutq parchasi yuqoridagi fikrlarimizni isbotlaydi. Mazkur satrlar to‘liq asindeton (bog‘lovchi qo‘llanmagan), takror (*qiyshiq* leksemasi uch marta takrorlangan) va sintaktik parallelizm (poetik nutq parchasining dastlabki to‘rt satrida parallellik mavjud) asosida shakllangan. Shuning uchun ham parchada ekspressivlik va ta’siriylik yuqori o‘rin tutadi. Parataktik asindeton bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning teng munosabatli uyushgan qismlari (gaplar) orasida yuzaga chiqqanda, “ikkita bir xil tipda shakllangan qismlar o‘z-o‘zidan, agar boshqa sintaktik parallelizm yoki takror kabi sintaktik figuralar bo‘lmasa, ekspressivlikni oshira olmaydi. Uchinchi qism qo‘shilgandagina, parataktik asindeton she’riy nutq satrlarida ekspressivlikning rivojlanishini va ularda ritmo-melodik va arxitektonik uyg‘unlashuvni yuzaga keltiradi”<sup>34</sup>:

Elliptik gaplar jahondagi barcha tillarda uchraydi, chunki barcha tillarda tilning tejamkorlik qonuniyati amal qiladi<sup>35</sup>. Shuning uchun ham ellipsis masalasi nafaqat tilshunoslar, balki adabiyotshunoslar, jurnalistlar va publitsistlar diqqatini o‘ziga tortib keladi. U ifoda vositasi va bir paytning o‘zida sintaktik-stilistik figuradir. Tadqiqotchilar diqqati doimo poetik nutqning ifoda vositalariga qaratib kelingan, chunki poetik nutqda doimo ifoda vositalarining yangi va yangi turlari qo‘llaniladi, “poeziya doimo yangi ifoda vositalarini topish bo‘yicha izlanishda bo‘ladi”<sup>36</sup>. Ellipsis poetik nutqda ham badiiy nutqda ham boshqa sintaktik-stilistik figuralar bilan birga qo‘llanib konvergensiya hosil qilishi, nutq muallifining stilistik maqsadini yuzaga chiqarishdagi muhim vosita sifatida, obrazlilik va ta’sirchanlikni kuchaytirishi mumkin. Quyida biz ellipsis ishtirokidagi sintaktik-stilistik konvergensiyaning eng mahsuldor ko‘rinishlari, ya’ni o‘zbek badiiy nutqida ellipsis bilan eng ko‘p birga qo‘llanuvchi figuralar konvergensiyasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz:

a) ellipsis – takror – struktural parallelizm konvergensiyasi

*Bir marta ko‘rganman,  
Faqat bir marta,  
Otamning jimgina yig‘laganini.  
Bir marta ko‘rganman,  
Faqat bir marta,  
Onang yo‘q, deb bag‘rin tig‘laganini.*

(Iqbol Mirzo. “Sizni kuylayman”, 86-bet).

Keltirilgan misolda ham shoir Iqbol Mirzo parchaning ikkinchi va beshinchi satrlarida *ko‘rganman* fe‘l-kesimni tushirib qoldirish orqali elliptik gap qo‘llagan, shu bilan birga, mana shu jumlaning va *bir marta ko‘rganman* gapining takrorlanishi orqali gap takrori usuli qo‘llanilgan, qolaversa, bir xil bo‘laklarning bir xil pozitsiyada takrorlanishi natijasida satrlarda struktural parallelizm hodisasi ham yuzaga kelgan. Yuqoridagi uch turdagi vositaning birga qo‘llanishi esa sintaktik-stilistik konvergensiyaning bir ko‘rinishi voqelangan. Muallif shu yo‘l

<sup>34</sup>Формановская Н.И. Стилистика сложного предложения. – М., 1978. – С.192.

<sup>35</sup>Казенин К.И. О некоторых ограничениях на эллиipsis в русском языке // Вопросы языкознания. 2007. №2. – С. 92-97.

<sup>36</sup>Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1956. – С.205.

orqali, ya'ni sintaktik-stilistik konvergensiya vositasida o'zining ma'lum bir stilistik maqsadiga to'liq erishgan.

b) ellipsis – antiteza – struktural parallelizm konvergensiyasi

*Qo'yishmas,  
Qo'limdan tortadi biri,  
Biri oyog'imdan,  
Biri sochimdan.  
Biri qo'ynim, biri ko'nglimga kirib,  
Hayotdan bezdirar qirq yoshimda.*

(M.Yusuf. "Erka kiyik", 18-bet.)

Keltirilgan parchada *biri oyog'imdan, biri sochimdan* jumalari eliptik gap hisoblanadi, ularda oldingi satrdagi *tortadi* fe'l-kesimi poetik talablarga ko'ra tushirib qoldirilgan, shuningdek, parchada oyoq-qo'l antonimlari yordamida antiteza hodisasi yuzaga keltirilgan. Diqqat qilinsa, *biri oyog'imdan, biri sochimdan* jumalarida parallelizm kuzatiladi, ya'ni struktural parallelizm ham kuzatiladi. Demak, yuqorida keltirilgan nutq parchasida ellipsis, antiteza, struktural parallelizm konvergensiya vositasining noyob namunasi voqelangan.

s) ellipsis – antiteza konvergensiyasi

*"Ha" — faqat o'pkang qoladi ko'ksingda.  
"Yo'q" — faqat yuraging.*

(Usmon Azim. Saylanma, 157-bet.)

Fikrimizni yuqoridagi misol yordamida davom ettiramiz. Mazkur misolda ham nutqiy parchaning ikkinchi satrini tashkil etgan *"Yo'q" — faqat yuraging* jumlasida ellipsisga uchragan bo'lsa *ha, yo'q* modal-antonimlarining ishtiroki antitezani yuzaga keltirgan. Natijada, yuqoridagi nutq parchasida sintaktik-stilistik konvergensiya hodisasi shakllangan.

Dissertatsiyaning "**Pozitsion va semantik figuralarda konvergensiya**" deb nomlangan uchinchi bobi mazmuni 5 faslda bayon qilingan.

Bobning "**Inversion bo'laklarda konvergensiya hodisasi**" deb nomlangan birinchi faslida pozitsion sintaktik-stilistik figuralar haqida ma'lumot berish bilan birga inversiya vositasida konvergensiya hosil qilinishi tahlilga tortilgan.

Inversiyada aktul bo'linish haqida gap ketganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu o'rinda ekspressiv ifoda birinchi planga chiqadi. Bo'laklar o'rining almashtirilishi, ya'ni remaning oldingi o'ringa chiqarilishi yetkazilayotgan informatsiyaning to'liqligiga putur yetkazmaydi, balki gapga emfatik ifoda olib kiradi, ya'ni tema emfatik urg'u oladi<sup>37</sup>:

Inversiya juda ko'p hollarda sintaktik parallelizm va takror usuli bilan konvergensiya hosil qiladi:

*Ustimga sochilib tushardi soya,  
Ustimda shovullab turardi daraxt.  
Oy ketar... Tinadi oydin ashula,  
Qolar oy tortig'i – ko'ksimdagi Baxt.*

(X.Davron. "Bahordan bir kun oldin", 45-bet)

Keltirilgan misolga diqqat qilinsa, misolning dastlabki ikki satrida egalarning inversiyaga uchrashi, ya'ni ega vazifasidagi *soya, daraxt* so'zlarining inversiyaga uchraganligi, satrlarda *ustim* leksemasining turli grammatik shakllarda takrorlanib

<sup>37</sup>Карашаева Б.Б. Стилистическая инверсия как средство выражения эмоциональности и экспрессивности в английской литературе XIX-XX вв. // Актуальные проблемы языкознания, 2015. – №1. – С.46-48.

kelishi, shu bilan birga, satrlarning sintaktik parallelizm asosida shakllanganligi kuzatiladi. Demak, bu o'ringda inversiya, takror, sintaktik parallelizm konvergentsiyasi yuzaga kelgan. Bu uch turdagi sintaktik-stilistik vositaning birgalikda qo'llanishi natijasida satrlardagi obrazlilik ortgan, tasvir kuchaygan, fikr alohida logik urg'u vositasida tinglovchiga yetkazilgan.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "*Parsellyatsiya asosida voqelanuvchi konvergentsiya*" deb nomlanadi.

Parsellyativ qurilmalar ikki qismdan – asosiy fikrni tashkil etgan qurilma va parsellyativ qurilmadan tashkil topadi. Asosiy fikrni bayon etuvchi qurilma yoki bo'lak o'zining mustaqilligi bilan ajralib turadi, parsellyat qurilma esa doimo asosiy qurilma yoki bo'lakka nisbatan tobelanib keladi. Hokim-tobelik mantiqiy jihatdan ham, sintaktik funksiyasi jihatdan ham sezilib turadi. Parsellyat qurilma qo'shimcha ma'lumot berishi, asosiy fikrga nisbatan ilova tarzidagi ma'lumot yoki izohlarni ifoda etishi bilan xarakterlanadi. Parsellyatlar ko'p hollarda sharhlash, izohlash, aniqlik kiritish yoki asosiy qurilmada berilgan fikrni rivojlantirish hamda urg'ulash maqsadida qo'llaniladi. Tashqi tomondan qaraganda, ular inversiya bilan bir xildek ko'rinadi, lekin diqqat qilinsa, ular asosiy informatsiyani yetkazuvchi gap tarkibidan alohida pauza (to'xtam) bilan ajratilganiga guvoh bo'lamiz. Yozuvda ularning asosiy qismdan vergul bilan ajratilganligi fikrimizni tasdiqlaydi. Parsellyatlar yozuvda nafaqat vergul vositasida, tadqiqotchi M.Abdupattoyev ko'rsatib o'tganidek, tire, nuqtali vergul, qavs kabi belgilar yordamida ham ajratib ko'rsatilishi mumkin<sup>38</sup>. Bu tinish belgilarining barchasi asosiy qurilma bilan parsellyativ qurilma yoki bo'lak o'rtasidagi pauza (to'xtam)ni yozuvda ifoda etish uchun qo'llaniladi. Masalan: *Bektemir ohista o'tirdi – charchab, horib.* (Oybek) kabi gaplarda parsellyat bo'laklar tarkibida vergul mavjudligi sababli ham, ular asosiy qurilmadan tire bilan ajratilgan va shu yo'l bilan yozuvda pauzani ifoda etgan.

Ta'kidlab o'tilganidek, parsellyatlar ham badiiy yoki poetik nutqda ta'sir vositasi – sintaktik-stilistik figura sifatida qo'llanadi. Mazkur vosita ham turli sintaktik-stilistik figuralar bilan qorishiq holda qo'llanib konvergentsiya hosil qilishi mumkin. Misollarga murojaat qilamiz:

parsellyatsiya – struktural parallelizm konvergentsiyasi:

*Uni hurmat qilar edi odamlar,  
(Agar hurmat bo'lsa qo'ruvning oti),  
Undan najot tilar edi odamlar,  
Elga kerak edi uning «najoti».*

(E.Vohidov. Saylanma. 1-jild,189-bet)

Ushbu badiiy nutq parchasining birinchi va uchinchi satrlarida struktural parallelizm qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi satrini parsellyativ qurilma tashkil etgan. Bu ikki vositaning birgalikda qo'llanishi natijasida poetik ifodaning ta'sirchanligi ortgan, obrazlilik va ekspressivlik kuchaytirilgan. Dissertatsiyada parsellyatsiyaning antiteza, leksik takror, sanash usuli, inversiya kabi vositalar bilan konvergentsiyaga kirishish holatlari lisoniy dalillar orqali tahlil qilindi.

Mazkur bobning uchinchi fasli "*Struktural parallelizm konvergentsiya asosi sifatida*" deb nomlanadi.

<sup>38</sup>Абдулаттоев М.Т. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Филол. фан. д-ри ... дисс. – Фарғона, 2021. – Б.182-183.

Struktural parallelizm poetik nutqni teng o'lovli ritmda shakllantirish bilan birga, bir qancha sintaktik-stilistik figuralar bilan birgalikda qo'llanib, konvergensiya hodisasini yuzaga chiqaradi.

Badiiy nutq va uning qism-fragmentlarining shakllanishida, ularda hissiy-ta'siriy mazmun ottenkalarini kuchaytirishda takrorning o'rni alohida ahamiyatlidir. Takror badiiy asarning birinchi komponentida fikr qaratilgan predmet ma'nosini ifodalovchi so'zning keyingi komponentlarda leksik material jihatdan o'zgarmagan, ammo grammatik shakli jihatidan o'zgarishi mumkin bo'lgan holda takroran qo'llanishiga asoslanadi. Boshqacha aytganda, bunday usulda shakllanadigan poetik nutqda komponentlarning har birida bir leksemaning u yoki bu grammatik shaklda takror qo'llanilishi kuzatiladi. Masalan:

*Tirikligim sen bilan,  
Suyukligim sen bilan.  
O'zing ulug' bo'stonim,  
O'zing yorug' jahonim.  
Ulug' tog'day ulug'im,  
Qal'am — O'zbekistonim.*

(M.Yusuf. "Xalq bo'l elim", 32-bet)

Misoldan ko'rinadiki, bu o'rinda takror va sintaktik parallelizm konvergensiya sinov namunasi kuzatiladi. Satrlardagi *sen bilan, o'zing* birliklarining takror qo'llanishi, shu bilan birga, xuddi shu satrlarning parallel asosida shakllantirilganligi nutqiy ta'sirchanlikni oshirish, ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida qo'llangan. Yuqoridagi holat sintaktik parallelizm va takror usuli o'rtasidagi konvergensiya yorqin misol bo'la oladi.

Takror va uning turlari, ayniqsa, poetik nutqda she'riy bandlar poetik kompozitsiya sinov shakllanishi va musiqiy ohangning uyg'unlashuvida muhim o'rin tutadi. Takrorlar poetik nutqning aniq belgilangan o'rinlarda qo'llanib, fikr mazmunini kuchaytirish va ta'kidlash bilan birga, bir paytning o'zida kompozitsion yaxlitlik hosil qilish va ekspressiya ifoda etishi jihatidan muhim vazifa bajaradi:

*Ko'ngil so'rab, ko'ngil buzdi do'stlarim.  
Ko'nglim so'rab, ko'ngil uzdi do'stlarim.*

(Iqbol Mirzo. "Sizni kuylayman", 144-bet)

Keltirilgan misolda sintaktik parallelizm poetik nutqni teng o'lovli ritmda shakllantirish bilan birga, takror usuli bilan birgalikda qo'llanib, konvergensiya hodisasini yuzaga chiqargan. Birinchidan, poetik nutqning mazkur parchasi parallel sintaktik qurilmalar — teng urg'uli va bir xil sintaktik vazifadagi sintagmalar asosida shakllangan, ikkinchidan, parchada *ko'ngil* so'zining to'rt o'rinda takrorlanishi, *ko'ngil so'rab* birikmasining ikki o'rinda, *do'stlarim* leksemasining ikki o'rinda takrorlanib kelishi kuzatiladi. Natijada, ikki usulga asoslangan konvergensiya hodisasi yordamida fikr obrazli, ta'sirchan va ekspressiv tarzda o'quvchiga yetkazilgan. Yoki quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

*Shoirlar erta tug'iladilar.  
Bahorning to'ng'ichi — boychechakday.  
Shoirlar armon bilan o'ladilar,  
Bahorning to'ng'ichi — boychechakday*

(Usmon Azim. Saylanma, 93-bet)

Tahlilga tortilayotgan mazkur matn parchasida ham konvergensiya hodisasi kuzatiladi. To'g'rirog'i, mazkur parchaning shakllanishiga stilistik konvergensiya asos bo'lgan. Nutq muallifi struktural parallelizm va takror usullaridan san'atkorona mahorat bilan foydalangan holda emotsional-ekspressivlik yuqori darajada yuzaga kelgan satrlarni yarata olgan.

Quyidagi misolda esa uch turdagi vositaning konvergensiya hosil qilishi kuzatiladi.

*Tunni tong o'ldirdi,  
Tongni shom o'ldirdi.  
Shomni bo'g'di tun...  
Nima uchun?  
Nima uchun,  
Shomning qo'li qon...  
Tongning qo'li qon...  
Bor-yo'g'i bir qadam qo'ydingmi,  
Beshafqat zamon?!*

(Usmon Azim Saylanma 143-bet.)

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sintaktik parallelizm poetik nutqning maxsus sintaktik figurasi sifatida satrlarning teng urg'uli sintagmalarga bo'linishi, satrlardagi bo'laklarning parallel holda joylashuviga asoslanadi. Keltirilgan misolda ham *tunni tong o'ldirdi, tongni shom o'ldirdi*, ya'ni to'ldiruvchi-ega-kesim paralleligi, shu bilan birga, *shomning qo'li qon...tongning qo'li qon...* tarzidagi aniqlovchi-ega-kesim paralleligi, bundan tashqari, tun, tong, o'ldirdi, qo'l, qon leksemalarining takrorlanib kelishi, shu bilan birga, tun, tong, shom leksemalari yordamida antiteza usulining yuzaga keltirilishi kuzatiladi. Demak, bu o'rinda parallelizm, takror, antiteza konvergensiyasi mavjud.

Takror, parallelizm va antiteza, xiazm o'zbek badiiy va poetik matnlaridagi eng mahsuldor vositalar sanalib, ularning birgalikda qo'llanishi konvergensiya hodisasining yorqin namunasi hisoblanadi va o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari naqadar keng ekanligini ko'rsatadi.

Bobning to'rtinchi fasli "*Antiteza va konvergensiya hodisasining mutanosibligi*" deb nomlanadi.

Badiiy yoki poetik nutqda antitezaning sintaktik-stilistik figura sifatida alohida o'zi qo'llanishi kamyob hodisa bo'lib, ko'pincha, boshqa figuralar bilan birgalikda qo'llanadi. Masalan, takrorning biror bir turi yoki sintaktik parallelizm tarkibida qo'llanishi kuzatiladi:

*Bir shirin so'z odamga asal bo'lib tuyular,  
Bir shirin so'z odamga zahar bo'lib tuyular.*

(Xalq maqoli)

Berilgan misolda antiteza takror va sintaktik parallelizm bilan konvergensiya hosil qilgan. Antiteza shu yo'l bilan kontrast tushunchalarni yaratadi, ularning zid belgilarini qiyoslash yo'li bilan ifoda etadi va o'ziga xos stilistik bo'yoqdorlik hosil qiladi. Ayniqsa, sintaktik parallelizm tarkibida qo'llanganida, yuqoridagi misoldan anglashilib turganidek, parallelizmning alohida bir turi – antitezik parallelizm yuzaga keladi<sup>39</sup>. Antiteza badiiy nutqda konflikt yaratish vositasi

<sup>39</sup>Джамалова М.К. Антитеза в поэзии А.Галича. // Культура русской речи в условиях многоязычия. (Материалы II международной конференции). – Махачкала, 2015. – С.216-221.

sifatida ham baholanadi. U ziddiyat mohiyatini ochib bera oluvchi, ziddiyatni yuksak badiiy ifodasini yarata oluvchi figuradir:

Mazkur vosita ko‘pincha boshqa sintaktik-stilistik vositalar bilan birga qo‘llanib konvergensiya hodisasini yuzaga chiqaradi. Dissertatsiyada antitezaning takror, sintaktik parallelizm, sanash usuli, ellipsis, ritorik so‘roq, polisindeton, gradatsiya kabi vositalar bilan konvergensiya kirishish holatlari o‘zbek badiiy nutqidan olingan misollar yordamida dalillandi.

Bobning beshinchi fasli “*Gradatsiya va unda konvergatsion figuralarning qo‘llanishi*” deb nomlanadi.

Rus tilshunosi A.V.Sherbak o‘zining doktorlik dissertatsiyasida gradatsiyaning yettita asosiy funksiyasini – ta’kidlash, xarakterlash, emotsionallikni kuchaytirish, baholash, tasvirlash, nutqni shakllantirish, ritm yaratish funksiyalarini ko‘rsatib o‘tadi<sup>40</sup>.

Demak, gradatsiya ham poetik nutqdagi stilistik funksiyalariga ko‘ra ekspressivlikni kuchaytiruvchi, hissiy-ta’siriylikni ta’minlovchi figura hisoblanadi. Uning poetik nutqda qo‘llanishi predmet, voqea-hodisalar yoki ularning belgilarini darajalash yo‘li bilan ifodalash, shu yo‘l bilan fikr yetkazish uchun xizmat qiladi.

Shu bilan birga, unda boshqa sintaktik-stilistik figuralar bilan birga qo‘llanish, ya’ni konvergensiya kirishish imkoniyati mavjud. Gradatsiya vositasida konvergensiya yuzaga kelgan holatlarda darajalanish kuchli hissiy-ta’siriy bo‘yoqlar orqali ifoda etiladi.

Kuzatishlarimiz davomida ko‘rib chiqilgan lisoniy dalillar shuni tasdiqlaydiki, o‘zbek badiiy va poetik nutqida gradatsiya konvergensiya quyidagi sintaktik-stilistik figuralar bilan birga qo‘llanganda faol yuzaga keladi. Dissertatsiyada gradatsiyaning takror, sintaktik parallelizm, sanash usuli, oksyumoron, ellipsis, asindeton, polisindeton kabi vositalar bilan konvergensiya kirishish holatlari o‘zbek badiiy nutqidan olingan misollar yordamida dalillandi.

## XULOSA

1. Til oilalarining shakllanib borishi va ma’lum bir tilning o‘z ichki imkoniyatlari asosida undagi mavjud ayrim birlik va vositalarning yaqinlashuvi hamda birikib ketib, bitta birlik yoki kategoriyani tashkil etishi kabi masalalarni o‘rganish lingvistik konvergensiya nazariyasi muammolarini tashkil etadi. Konvergensiya nazariyasiga ko‘ra, har qanday tarixiy jarayonlardan qat’iy nazar o‘zaro til aloqalari natijasida tillarning bir-biriga yaqinlashuvi, o‘zaro yaqinlashuv natijasida ulardagi bir qancha lisoniy birlik va vositalarning biridan ikkinchisiga o‘tishi yoki o‘zaro ta’sir natijasida yangi kategoriyalarning hosil bo‘lishi hamda dialektlarning tashqi va ichki ta’sir natijasida mustaqil tillarga aylanib borishi ham nazarda tutiladi.

2. Sintaktik stilistikaning eng muhim aspekti sintaktik birlik va sintaktik vositalarning ekspressiv-stilistik belgi-xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi. Bunda sintaktik stilistikaning markaziy tadqiqot obyektlari sifatida sintaktik sinonimiya hodisasi, shu bilan birga, sintaktik-stilistik vositalar tadqiqi turadi. Shuningdek, tilning ekspressiv ifoda imkoniyatlarini tadqiq etish sintaktik stilistikaning o‘rganish obyekti hisoblanadi.

---

<sup>40</sup>Щербак А.В. Градация как стилистическое явление современного русского литературного языка. Автореф. дисс. док. филол. наук. – Новосибирск, 2014. – С. 38.

3. Sintaktik-stilistik figuralar asosan badiiy nutqda va, ko‘pincha, xalq og‘zaki ijodi durdonalarida – maqol va matallar, turli aforizm va hikmatli so‘zlar tarkibida qo‘llanib, emotsional-ekspressivlikni ta‘minlash, obrazlilikni oshirish kabi stilistik maqsadlarda qo‘llanadi. Ularning ma‘lum bir matn yoki nutq tarkibida birgalikda qo‘llanishi sintaktik-stilistik konvergensiyaning hosil qiladi. Sintaktik-stilistik konvergensiya badiiy va poetik matnlarda muallifning yuksak mahoratidan darak beruvchi hodisa bo‘lib, tilshunoslar tomonidan endigina e‘tibor qaratilayotgan, shu bilan birga, juda kam o‘rganilgan stilistik usul sifatida namoyon bo‘ladi.

4. Sintaktik-stilistik konvergensiya yordamida muallif idioshtilida til shaxsi tomonidan obyektiv borliqning alohida va takrorlanmas tasviri yaratiladi, shu bilan birga, matn interpretatsiyasi va muallifning pragmatik manerasi amalga oshiriladi. Bunda muallif eng muhim axborotlarni birinchi planga chiqaradi va asosiy fikr-g‘oyani yorituvchi lisoniy birliklar ma‘nosiga alohida urg‘u beradi.

5. Tilimizdagi mavjud barcha badiiy tasvir vositalari, troplar, sintaktik-stilistik usul va vositalar bilan konvergensiya kirishish va unda ishtirok etish imkoniyatiga ega. Sintaktik-stilistik konvergensiyaning yuzaga kelishi va amaliy voqelanishining dolzarbligi va amaliy ahamiyati shundaki, uni o‘rganish, birinchidan, hissiy-ta‘siriy bo‘yoqqa ega bo‘lgan matnlarni sistem tarzida keng va atroflicha kompleks baholash imkoniyatini bersa, ikkinchidan, mazkur sohada olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun yo‘l ochadi va qimmatli ma‘lumotlar beradi.

6. Takror va uning turlari xilma xil stilistik vositalar bilan konvergensiya hosil qilishi mumkin. Takror ellipsis bilan birgalikda qo‘llanib, o‘zaro konvergensiya kirishganida, tuzilishi jihatidan ixcham, ta‘sirchanligi yuqori bo‘lgan nutq ko‘rinishlari shakllanadi. Takror bilan bog‘liq holda konvergensiya hodisasini yuzaga chiqaruvchi yana bir vosita xiazmdir. Takror va xiazm konvergensiya badiiy nutqda o‘ziga xos emotsional-ekspressivni ifoda etadi.

7. Ellipsis ham faol badiiy va sintaktik-stilistik vosita sifatida bir qancha figuralar bilan konvergensiya hosil qilish imkoniyatiga ega. Ellipsis vositasidagi konvergensiya qaytariqlardan holi, yuqori hissiy-ta‘siriy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lgan nutqni shakllantiradi. Elliptik gaplarning tabiiy ravishda bizning ongimizda tayyor bo‘lgan modellar asosida shakllanishi va boshqa vositalar bilan birga qo‘llanishi natijasida ixcham va obrazli qurilmalar yuzaga keladi.

8. Badiiy va poetik nutqning eng xarakterli belgilaridan biri inversiya bo‘lib, u ta‘kidlash ohangi orqali poetik nutq ritmini shakllantiruvchi, hissiy-ta‘siriylikni kuchaytiruvchi vosita sanaladi. Bu vositaning boshqa sintaktik-stilistik vositalar bilan konvergensiya kirishishi, ya‘ni birgalikda qo‘llanishi natijasida hissiy-ta‘siriylik va ekspressivlik yuqori nuqtaga ko‘tariladi. Bu holat tilimizning ifoda imkoniyatlari cheksiz-chegarasiz ekanligidan dalolat beradi.

9. Parsellyatsiya hodisasi ham nutq muallifi tomonidan asosiy informatsiyaga qo‘shimcha tarzida yetkaziladigan izoh, sharh yoki ma‘lum bir maqsadda kiritiladigan qo‘shimcha ma‘lumotlari ana shunday “ilova tarzida kiritilgan parsellyatlar” orqali ifoda etiladi. Parsellyativ qurilmalar ham boshqa bir qancha sintaktik stilistik vositalar bilan konvergensiya hosil qilish imkoniyatiga ega. Bunday konvergensiya berilayotgan izoh va qo‘shimcha ma‘lumotlar yuqori ekspressiv va hissiy-ta‘siriy bo‘yoqlarda beriladi.

10. Parallelizm boshqa bir qancha sintaktik-stilistik vositalar bilan konvergensiya kirishuvchi eng faol vosita hisoblanadi. Uning takror, antiteza, xiazm usuli bilan birgalikda qo‘llanish holatlari o‘zbek badiiy va poetik nutqida

eng sermahsul hisoblanadi. Sintaktik parallelizm poetik nutqning asosiy sintaktik figuralaridan biri bo‘lib, ta’siriylikni oshirish, ichki ritmni kuchaytirish maqsadida qo‘llanadi. Parallelizm asosida hosil qilingan konvergensiya fikr dinamikasi tezlashadi, nutqning semantik maydoni kengayadi, nutqda ohangdorlik hosil qilinadi, sintaktik qurilmalarning qismlari o‘zaro semantik va sintaktik uyg‘unlikda birikadi, nutqning ichki ritmi va fonosemantikasi kuchayadi.

11. Tilshunoslikda antiteza poetik nutqning alohida ekspressiv-stilistik funksiya bajaruvchi figurasi sifatida talqin etiladi. Antiteza predmet, voqea-hodisa, harakat-hoлатlarni kontrast yo‘li bilan qarama-qarshi, zid qo‘yishga asoslangan stilistik usul hisoblanadi. Antiteza badiiy va poetik nutqqa xos sintaktik-stilistik vosita hisoblanib, konvergensiya qurilmalarning shakllanishi va ularda turli stilistik maqsadlarni yuzaga chiqarishdagi faol vositalardan biri hisoblanadi.

12. Gradatsiya vositasida konvergensiya yuzaga kelgan holatlarda darajalanish kuchli hissiy-ta’siriy bo‘yoqlar orqali ifoda etiladi. Hissiy-ta’siriylik va ekspressivlik yuqori nuqtaga ko‘tariladi. Bu figura vositasida hosil qilingan konvergensiya nutqda fikr rivojini ta’minlaydi, unga mantiqiylik, ta’sirchanlik, jozibadorlik va obrazlilik beradi. Bu holat gradatsiyaning o‘zbek badiiy va poetik nutqida mahsuldor figuralardan biri ekanligini ko‘rsatadi hamda tilimizning ifoda imkoniyatlari cheksiz-chegarasiz ekanligidan dalolat beradi.

**FERGHANA STATE UNIVERSITY SCIENTIFIC DEGREE  
AWARDING COUNCIL UNDER THE AUTHORITY OF  
SCIENTIFIC COUNCIL № DSc.03/30.12.2019.Phil.05.02**

---

**FERGHANA STATE UNIVERSITY**

**SHODMONOV KHOLMATJON POLATJON UGLI**

**CONVERGENCE OF SYNTACTIC-STYLISTIC FIGURES**

**10.00.01 – Uzbek language**

**ABSTRACT**

**for the doctor of philosophy (PhD) degree on philological sciences**

**Farghana – 2025**

The dissertation topic for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) has been registered with the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under reference number B2024.3.PhD/Fil4965.

The dissertation was completed at the Department of Linguistics, Ferghana State University.

The author's abstract of the dissertation is available in three languages (Uzbek, English, and Russian (résumé)) on the official website of Fergana State University: (www.fdu.uz) and the "Ziyonet" educational information portal: (www.ziyonet.uz.).

**Scientific supervisor:** Abdupattoyev Mukhammadtokhir Tojimatovich  
Doctor of philological sciences, professor

**Official opponents:** Dilnoza Jamoliddinova Mirxojiddinova  
Doctor of philological sciences, professor

Nurmonova Dilfuza Abduhamidovna  
Doctor of philological sciences, professor

**Lead organization:** Samarkand state university

The defense of the dissertation will take place at the meeting of the Scientific Degree Awarding Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Ferghana State University on "11" 12 2025 at 9<sup>00</sup> (Address: 100151, Fergana city, B.Marginoniy street, 105. Tel.: (99873) 244-66-02; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation can be viewed at the Information-Resource Center of Ferghana State University (registered under number 635). Address: 100151, Fergana city, Murabbiylar street, 19. Tel.: (99873) 244-46-02.

The abstract of the dissertation was distributed on "27" 11 2025  
(Registry record №. 62 dated "27" 11 2025)



**G.Z.Rozikova**  
Chairman of Scientific Council  
scientific degree, Doctor of  
Philological Sciences, Professor.

**K.V.Yulchiyev**  
Secretary of the Scientific Council,  
scientific degree, Doctor of  
Philological Sciences, associate  
professor

**M.Y.Mamajanov**  
Chairman of Scientific Council  
scientific degree, Doctor of  
Philological Sciences, Professor

## INTRODUCTION (PhD Dissertation Abstract)

**Relevance and authenticity of the dissertation topic.** In recent years, the global field of linguistics has increasingly focused on studying language not only as a means of communication and interaction but also as a tool of influence. The agenda now includes the investigation of linguistic units not merely in terms of their role in communicative processes, but also in relation to their functional adaptation for specific purposes. Examining the impact that each linguistic unit used in speech can have on human cognition has become one of the pressing research tasks. Traditionally, in linguistics, means of influence have been studied under terms such as syntactic-stylistic figures, syntactic-stylistic devices, and stylistic tools. However, there is a growing need for deeper and more comprehensive exploration of these means. Studying the convergence of syntactic-stylistic figures (i.e., their mixed use in speech) enables a more profound and scientific understanding and interpretation of their functional potential. Currently, linguopoetic research conducted within the scope of global linguistics—particularly studies within the framework of poetic syntactic stylistics — holds significant practical value for the advancement of this field.

In global linguistics, research on syntactic-stylistic figures is being conducted based on anthropocentric and linguopoetic methodologies. At present, the study of devices and figures that enhance the expressiveness, imagery, and emotional-expressive power of artistic speech is becoming a tradition within the interdisciplinary framework of linguistics and literary studies—that is, within the scope of linguopoetic research. As a result, it has become possible to comprehensively evaluate artistic discourse from a linguistic perspective and to identify its mechanisms of influence. Linguists and researchers are now shifting their focus beyond merely describing linguistic units in terms of their figurative characteristics, turning instead toward the investigation of their functional capabilities. Therefore, examining linguistic units interpreted as syntactic-stylistic figures within the domains of linguocultural and linguopoetic research is essential for providing a thorough theoretical foundation for this issue.

In the context of today’s New Uzbekistan, the further advancement of scientific research and the implementation of measures aimed at “preserving the historical heritage, customs, and national educational traditions of our people, as well as fostering interfaith tolerance, interethnic harmony<sup>1</sup>, and mutual respect among broad layers of the population, especially among our youth”—all play a crucial role in building the foundation of the New Uzbekistan. In this process, strengthening the international prestige of the Uzbek language—as a vivid and priceless product of our people’s centuries-old cultural, scientific, educational, and artistic thought and intellectual potential<sup>2</sup>, and as one of the world’s richest and most ancient languages—requires valuable scholarly research within the systems of language-person-culture and language-person-society. This, in turn, places a responsibility on linguists to further expand the scope of research on the Uzbek language and to demonstrate its expressive potential in accordance with international scientific standards. A proper interpretation of the national grammatical structure of our language, along with its emotional-impact and expressive

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son qarori. – Toshkent sh. 28.07.2017. Manba: <https://lex.uz/docs/-4071203> (murojaat sanasi: 17.07.2024).

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son farmoni. 21.10.2019-yil. Manba: <https://lex.uz/docs/-4561730> (murojaat sanasi: 21.08.2024).

capacities, is one of the most important factors for the development of our national ideology and ideas. Therefore, the comprehensive study and broad evaluation of syntactic-stylistic figures—particularly those with distinct emotional and influential functions—within the framework of syntactic-stylistic research, has become one of the most pressing tasks of the present day. Especially important is the phenomenon of convergence arising from the combined use of such syntactic-stylistic figures, which represents a significant element of Uzbek national discourse and serves as a principal tool for ideological and emotional influence. The broad scope and the ability of these figures to fully reflect the laws of dialectics necessitate the in-depth study of the convergence phenomenon within syntactic-stylistic figures.

This dissertation research is in line with several decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan, including the Decree No. PF-5847 on the approval of the "Concept for the Development of Higher Education in the Republic of Uzbekistan until 2030" dated October 8, 2019; Decree No. PF-5850 on measures to increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language dated October 21, 2019; Decree No. PF-6084 on further developing the Uzbek language and improving language policy dated October 20, 2020; Decree No. PF-6097 on the approval of the "Concept for the Development of Science until 2030" dated October 29, 2020; Decree No. PF-6108 on the development of education, training, and science in the new phase of Uzbekistan's development dated November 6, 2020; Decree No. PF-60 on the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" dated January 28, 2022; and several other normative and legal documents related to education and science, such as the Resolution No. PQ-2789 on improving the organization, management, and financing of scientific research activities by the Academy of Sciences dated February 17, 2017; Resolution No. PQ-2909 on further enhancing the higher education system dated April 20, 2017; and Resolution No. PQ-4479 on the celebration of the 30th anniversary of the adoption of the "Law on State Language" dated October 4, 2019, along with the Resolution No. 304 by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan on improving the post-graduate education system dated May 22, 2017. This dissertation serves to implement the tasks envisaged in these legal and regulatory documents. The connection of the research to the priority directions of the development of science and technology in the Republic: This research is aligned with the priority direction of the Republic's development of science and technology, namely the formation of an innovative system of ideas for the development of an information society and a democratic state in the areas of social, legal, economic, cultural, moral, and educational development, and the ways to implement them.

**The degree of research on the issue:** The issues of syntactic-stylistic figures have been addressed for many years in the scientific works of prominent linguists such as V.V.Vinogradov, I.R.Galperin, B.A.Larin, G.V.Stepanov, V.M.Jirmunskiy, D.N.Shmelev, N.P.Nebrosina, Y.M.Lotman, G.Ya.Solganik, Y.M.Trofimova, L.A.Khoresko, N.S.Bolotnova, Y.V.Kazarin, E.I.Koroleva, A.A. Lebedev, V.N.Patroeva, V.V.Babayseva, and I.I.Kovtunova<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Виноградов В.В. Язык и стиль русских писателей. – М.: Наука, 1990; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1973; Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – М.: Наука, 1988; Жирмунский В.М. Рифма, ее история и теория // Теория стиха. – Л.: Наука, 1975; Шмелев Д.Н. Слово и образ. – М.: Наука, 1964; Небросина Н.П. Синтаксис стихотворной речи как предмет лингвопоэтического исследования: На материале англ. и амер. поэзии XVI-XX вв.: Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. Пермь, 1997; Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1998; Лотман Ю.М. Анализ

Among the studies conducted on the occurrence of convergence phenomena in syntactic-stylistic figures, we can cite the monographic studies of V.Riffatere, V.N.Malevannaya, N.S.Matorina, Y.V.Ivanova, S.A.Kuzmenko, and G.A.Kopnina<sup>4</sup>.

In recent years, in Uzbek linguistics, the issues of syntactic-stylistic figures and related phenomena have been widely studied in works dedicated to poetic and artistic speech by researchers such as I.Mirzayev, A.Mamajonov, M.Yoldoshev, M.Yoqubbekova, S.Karimov, M.Abdupattoyev<sup>5</sup>, G.Mukhammadjonova, M.Yoldoshev, E.Ibragimova, O.Mamaziyaev, D.Jamoliddinova, D.Shodieva, S.Umirova, and O.Tursunova in their doctoral and candidate dissertations. While these figures have been studied extensively from various aspects<sup>6</sup>, the emergence of the convergence phenomenon has not been specifically studied as a distinct research object in monographic form.

**The connection of the research to the scientific research plans of the higher education institution where the dissertation is conducted.** The dissertation research is carried out within the framework of the scientific research plan of Fergana State University, under the direction of "Problems of Uzbek Language Syntax and Syntactic-Style Studies."

---

поэтического текста. – Л.: Просвещение, 1972; Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. – М.: Наука, 2022; Трофимова Ю.М. Лингвистика поэтического синтаксиса. – Саранск, 2015; Хорешко Л.А. Лингвокультурологический анализ поэтического текста и его передача на английский язык. – Белгород, 2018; Болотнова Н.С. Изучение идиостиля в современной коммуникативной стилистике художественного средства. – М.: Наука, 2004; Казарин Ю.В. Поэтический текст как система – Издательство Уральского университета, 1999; Королева Е.И. Экспрессивные грамматические средства языка в аспекте функционально-семантического поля (на материале современной британской баллеристики): Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Екатеринбург, 2016; Лебедев А.А. Поэтический синтаксис П.А.Вяземского: Автореф. дисс. ... канд.филол.наук. – Петрозаводск, 2016; Патроева В.Н. Типы и функции осложняющих конструкций в языке русской поэзии XVIII-XIX вв: Автореф. дисс. ... д-ра. филол.наук. – СПб., 2020; Бабайцева В.В. Читая стихи... (синтаксис и семантика) 2-изд. – М.: Флинта, 2016; Ковтунова И.И. Поэтический синтаксис. – М.: Наука, 1986.

